

NUTQIY XULQ-ATVORNING GENDER SOTSIOLINGVISTIKASI: LEKSIK VA PRAGMATIK TAFOVUTLAR TAHLILI

Muxammedova Mohichexraxon Baxodir qizi,
Qo'qon davlat universiteti 1-bosqich magistranti,
e-mail: mohichehramammedova7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy xulq-atvorning gender sotsiolingvistikasi doirasida erkaklar va ayollar nutqidagi leksik hamda pragmatik tafovutlar tahlil qilinadi. Tadqiqot gender lingvistikasi, pragmatolingvistika va sotsiolingvistika yo'nalishlarini integratsiya qilgan holda o'zbek va ingliz tillaridagi kommunikativ birliklarning funksional xususiyatlarini o'rgandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ayollar nutqida emotsional-ekspressiv birliklar, muloyimlik strategiyalari va kommunikativ moslashuv ustunlik qilishi, erkaklar nutqida esa qisqalik, aniqlik va dominativ strategiyalar ustuvorligi aniqlandi. Maqolada gender kommunikativ tafovutlarining ijtimoiy muhit, milliy mentalitet, madaniy stereotiplar va kommunikativ me'yorlar bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari gender lingvistikasi va pragmatik tadqiqotlarni rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: gender lingvistikasi, sotsiolingvistika, pragmatika, nutqiy xulq-atvor, gender stereotiplari, kommunikativ strategiya, leksik tafovut, diskurs, pragmatolingvistika, gender kommunikatsiyasi.

Аннотация. В данной статье в рамках гендерной социолингвистики анализируются лексические и прагматические различия в речевом поведении мужчин и женщин. Исследование проведено на основе интеграции гендерной лингвистики, прагматингвистики и социолингвистики.

В ходе изучения функциональных особенностей коммуникативных единиц в узбекском и английском языках выявлено, что в женской речи преобладают эмоционально-экспрессивные единицы, стратегии вежливости и коммуникативная адаптивность. В мужской речи доминируют краткость, точность и доминативные прагматические стратегии. В статье обоснована тесная взаимосвязь гендерных коммуникативных различий с социальной средой, национальным менталитетом, культурными стереотипами и коммуникативными нормами.

Результаты исследования служат важным источником для развития гендерной лингвистики и современных прагматических исследований.

Ключевые слова: гендерная лингвистика, социолингвистика, прагматика, речевое поведение, гендерные стереотипы, коммуникативная стратегия, лексические различия, дискурс, прагматингвистика, гендерная коммуникация.

Abstract. This article analyzes lexical and pragmatic differences in the speech behavior of men and women within the framework of gender sociolinguistics. The study integrates gender linguistics, pragmatolinguistics, and sociolinguistics.

By examining the functional features of communicative units in Uzbek and English languages, it was revealed that women's speech is characterized by a high level of emotional-expressive units, politeness strategies, and communicative adaptability. In contrast, men's speech demonstrates predominance of brevity, clarity, and dominant pragmatic strategies. The article substantiates the close connection of gender communicative differences with the social environment, national mentality, cultural stereotypes, and communicative norms.

The research results serve as an important source for the development of gender linguistics and modern pragmatic studies

Key words: gender linguistics, sociolinguistics, pragmatics, speech behavior, gender stereotypes, communicative strategy, lexical difference, discourse, pragmatolinguistics, gender communication.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda gender masalasi inson omiliga asoslangan tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishda gender omili muhim sotsiolingvistik kategoriya sifatida qaraladi. Chunki insonning nutqiy faoliyati nafaqat uning individual xususiyatlarini, balki jamiyatdagi ijtimoiy mavqei, madaniy qarashlari va kommunikativ tajribasini ham aks ettiradi. Shu jihatdan erkaklar va ayollar nutqidagi leksik, pragmatik hamda stilistik tafovutlarni tadqiq qilish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Gender lingvistikasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Ushbu yo‘nalish til birliklarining gender asosida qo‘llanish xususiyatlarini, erkak va ayollar kommunikatsiyasidagi o‘ziga xos jihatlarni hamda nutqiy xulq-atvorning ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligini o‘rganadi. Genderga oid tadqiqotlar natijasida tilning faqat grammatik yoki struktur tizim emasligi, balki ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi murakkab kommunikativ mexanizm ekani yanada chuqurroq anglab yetildi.

Nutqiy xulq-atvor insonning muayyan kommunikativ vaziyatdagi verbal va neverbal harakatlari yig‘indisini anglatadi. Har bir jamiyatda erkak va ayollarga xos kommunikativ me‘yorlar mavjud bo‘lib, ular til vositalarining tanlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ayollar nutqida emotsionallik, muloyimlik va kommunikativ moslashuv ko‘proq namoyon bo‘lsa, erkaklar nutqida qisqalik, aniqlik va dominativ strategiyalar ustunlik qilishi ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan. Bunday tafovutlar biologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy stereotiplar ta‘sirida shakllanadi.

Bugungi globallashuv davrida gender kommunikatsiyasi masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, internet diskursi, ommaviy axborot vositalari, siyosiy nutq va ijtimoiy tarmoqlarda genderga xos kommunikativ strategiyalar faol namoyon bo‘lmoqda. Raqamli kommunikatsiya insonlarning nutqiy xulq-atvoriga yangi pragmatik vositalarni olib kirdi. Shu sababli gender sotsiolingvistikasini zamonaviy kommunikativ muhit bilan bog‘liq holda tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir.

So‘nggi yillarda pragmalingvistika sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar gender omilining kommunikativ strategiyalar shakllanishidagi rolini yanada aniqroq ko‘rsatmoqda. Pragmatika til birliklarining real kommunikativ vaziyatdagi funksional xususiyatlarini o‘rganadi. Gender esa ushbu pragmatik birliklarning qo‘llanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Jumladan, ayollar nutqida yumshatuvchi birliklar, modal konstruktsiyalar va hurmat kategoriyasi faol ishlatilsa, erkaklar nutqida buyruq ohangi va qat‘iy fikr ifodalovchi birliklar ko‘proq qo‘llaniladi.

O‘zbek tilshunosligida genderga oid tadqiqotlar nisbatan yangi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. So‘nggi davrda sotsiolingvistika va pragmalingvistika doirasida gender kommunikatsiyasini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Biroq erkak va ayollar nutqidagi leksik hamda pragmatik tafovutlarning kompleks tahlili hali yetarli darajada amalga

oshirilmagan. Ayniqsa, o'zbek va ingliz tillari misolida gender kommunikatsiyasining qiyosiy jihatlarini o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada nutqiy xulq-atvorning gender sotsiolingvistikasi doirasida erkak va ayollar nutqidagi leksik hamda pragmatik tafovutlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida gender lingvistikasi, pragmalingvistika va sotsiolingvistika yo'nalishlari integratsiyasi asosida o'zbek va ingliz tillaridagi kommunikativ birliklarning funksional xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqot natijalari genderga oid kommunikativ tafovutlarning ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar va milliy mentalitet bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi erkaklar va ayollar nutqidagi leksik hamda pragmatik tafovutlarni ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun gender lingvistikasining nazariy asoslarini o'rganish, kommunikativ strategiyalarni qiyosiy tahlil qilish va o'zbek hamda ingliz tillaridagi genderga oid nutqiy birliklarni tadqiq etish vazifalari belgilab olindi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda genderga oid nutqiy xulq-atvor masalalari pragmatik va sotsiolingvistik yondashuv asosida kompleks ravishda o'rganiladi. Shuningdek, maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi gender kommunikatsiyasining o'xshash hamda farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari gender lingvistikasi, pragmalingvistika va zamonaviy kommunikatsiya nazariyalarini rivojlantirishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti va materiali. Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek va ingliz tillaridagi genderga oid nutqiy birliklar (leksik, pragmatik va diskursiv birliklar) tanlab olindi. Asosiy e'tibor erkaklar va ayollar nutqidagi leksik birliklar, muloyimlik strategiyalari, emotsional-ekspressiv vositalar, hedging konstruktsiyalari va kommunikativ moslashuv mexanizmlariga qaratildi.

Metodlar. Tadqiqotning asosiy maqsadini amalga oshirish uchun bir nechta zamonaviy tilshunoslik metodlari majmui qo'llanildi:

Qiyosiy-tahliliy metod — o'zbek va ingliz tillaridagi erkak hamda ayollar nutqidagi leksik birliklar va ularning funksional xususiyatlarini qiyosiy o'rganish uchun asosiy vosita sifatida ishlatildi.

Pragmatik tahlil — kommunikativ strategiyalar, muloyimlik (politeness) kategoriyalari, hedging vositalari va suhbatdoshning yuzini (face) saqlash mexanizmlarini aniqlashda qo'llanildi.

Diskursiv tahlil — genderga oid nutqiy xulq-atvorning kengroq ijtimoiy va kontekstual jihatlarini tadqiq etish imkonini berdi.

Sotsiolingvistik kuzatish metodi — tabiiy muhitdagi real suhbatlarni kuzatish va qayd etish orqali gender nutqiy xatti-harakatlarini o'rganishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, miqdoriy tahlil (leksik birliklar chastotasini hisoblash) va sifatli (kontekstual) tahlil usullari ham qo'llanildi. Yig'ilgan empirik materiallar lingvistik va

statistik dasturlar yordamida qayta ishlandi. Ushbu metodlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligi va obyektivligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Gender lingvistikasi sohasidagi dastlabki ilmiy qarashlar amerikalik tilshunos Robin Lakoffning nomi bilan bog'liq. R. Lakoff o'zining "Language and Woman's Place" (1975) asarida ayollar nutqini "women's language" deb atab, unda emotsionallik, noaniqlikni ifodalovchi hedging (yumshatuvchi vositalar), tag questions (savol qo'shimchalari), bo'sh ma'noli sifatlar va haddan tashqari muloyimlik kabi xususiyatlar ustunligini ta'kidlagan. Olimning fikricha, ayollar nutqi ijtimoiy mavqega mos ravishda zaifroq, noaniq va muloyim bo'lib, bu jamiyatdagi gender stereotiplarining til orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi [1, 45-b.].

Gender kommunikatsiyasidagi farqlarni chuqurroq o'rgangan olimlardan biri Debora Tannen bo'lib, u "difference theory" (farqlar nazariyasi) asosida erkaklar va ayollar nutqidagi o'ziga xosliklarni tahlil qilgan. Tannen erkaklar kommunikatsiyasini "report-talk" (hisobot uslubi) — ya'ni faktlarga asoslangan, mustaqillik va statusni ta'kidlovchi nutq, ayollar nutqini esa "rapport-talk" (aloqa uslubi) — ya'ni yaqinlik, hamkorlik va emotsional bog'lanishni ta'minlovchi nutq deb farqlaydi. Uning fikricha, bu farqlar bolalikdan shakllangan madaniy submadaniyatlar natijasidir [2, 78-b.].

J. Holmes o'z tadqiqotlarida ayollar nutqida muloyimlik strategiyalarining (positive politeness) yuqori darajada qo'llanilishini va kommunikativ moslashuvchanlikni alohida qayd etgan. Holmesning tahlillariga ko'ra, ayollar suhbatdoshning yuzini (face) saqlashga ko'proq e'tibor qaratadi, iltifot va kechirim so'rash kabi ijobiy muloyimlik vositalaridan faol foydalanadi [3, 92-b.].

Pragmatik muloyimlik nazariyasining asoschilari Penelopa Braun va Stiven Levinson bo'lib, ular "Politeness: Some Universals in Language Usage" (1987) asarida ijobiy va salbiy yuz (positive/negative face) tushunchalarini ishlab chiqqanlar. Mualliflar gender omilining muloyimlik strategiyalariga ta'sirini ko'rsatib, ayollar ko'pincha ijobiy muloyimlikka (yaqinlikni ta'minlash), erkaklar esa salbiy muloyimlikka (mustaqillikni saqlash) moyilligini ta'kidlaydilar [4, 56-b.].

O'zbek tilshunosligida gender lingvistikasi masalalari nisbatan keyinroq o'rganila boshlagan bo'lib, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar asosan Sh. Safarov, N. Mahmudov va A. Nurmonov kabi olimlarning ishlarida qisman aks etgan. Sh. Safarov o'zbek nutqidagi pragmatik va diskursiv xususiyatlarni o'rganishda gender omilining ahamiyatini qayd etgan. N. Mahmudov va A. Nurmonovning tilshunoslikka oid nazariy ishlarida esa til va jamiyat, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik, shu jumladan gender aspektlari tilning antropotsentrik tabiati doirasida muhokama qilingan [5, 101-b.].

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda (J. Coates, S. Mills, D. Cameron va boshqalar) gender lingvistikasi nafaqat farqlarni tavsiflash, balki ijtimoiy konstruksiya sifatida genderning til orqali qanday shakllanishini tahlil qilishga o'tgan. Ushbu ishlar gender

kommunikativ tafovutlarining ijtimoiy muhit, milliy mentalitet, madaniy stereotiplar va kommunikativ me'yorlar bilan chuqur bog'liqligini isbotlaydi.

Mazkur tadqiqotda keltirilgan ilmiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, gender lingvistikasi xalqaro miqyosda yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, o'zbek til materiallarida chuqur empirik tadqiqotlar hali yetarli emas. Shu bois ushbu maqola o'zbek nutqidagi gender xususiyatlarini empirik material asosida o'rganishga hissa qo'shishi bilan ahamiyatlidir.

Natijalar. Tadqiqot davomida o'zbek va ingliz tillarida erkak hamda ayollar nutqining leksik va pragmatik jihatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali bir qator muhim gender tafovutlari aniqlandi. Ushbu farqlar nafaqat individual til foydalanishida, balki jamiyatdagi gender rollari, madaniy stereotiplar va ijtimoiy kutishlar bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

1. Ayollar va erkaklar nutqining leksik xususiyatlari

Ayollar nutqining leksik xususiyatlari. Ayollar nutqida emotsional-ekspressiv va baholovchi leksik birliklarning ustunligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ular suhbatni rang-barang va emotsional jihatdan boyitishga moyil bo'lib, quyidagi so'zlarni faol qo'llashadi: ajoyib, nihoyatda chiroyli, yoqimli, ajoyibona, juda yaxshi, qalbdan, chin dildan, azizim.

Kundalik hayotdan misollar:

“Bu nihoyatda yoqimli ko'ylak ekan, sizga juda yarashibdi!”

“Iltimos, biroz yordam bersangiz bo'ladi-mi? Rahmat, juda mehribonsiz.”

Bundan tashqari, ayollar nutqida modal so'zlar va yumshatuvchi konstruktsiyalar keng tarqalgan: menimcha, ehtimol, balki, shekilli, nazarimda, bo'lsa kerak. Bu birliklar suhbatdosh fikrini to'g'ridan-to'g'ri rad etmasdan, muloyim tarzda ifodalashga xizmat qiladi va kommunikativ muvozanatni saqlaydi.

Erkaklar nutqining leksik xususiyatlari. Erkaklar nutqida esa aniqlik, qisqalik va informativlikka asoslangan leksik birliklar ustunlik qiladi. Ular ko'proq faktlarga, natijaga va aniq buyruqqa yo'naltirilgan so'zlardan foydalanadilar: aniq, kerak, muammo yo'q, shunday bo'ladi, to'g'ri, yetarli, hal qilamiz, bajariladi.

Kundalik hayotdan misollar:

“Muammo yo'q, ertaga hal qilamiz.”

“Aniq ayt, nima kerak? Vaqt yo'q.”

Erkaklar nutqida emotsional-ekspressiv so'zlar va yumshatuvchi birliklar sezilarli darajada kam uchraydi. Bu ularning kommunikativ strategiyasining asosiy xususiyati — aniqlik va samaradorlikka intilishdir.

2. Pragmatik tafovutlar

Ayollar nutqida pragmatik strategiyalar. Pragmatik jihatdan ayollar nutqida muloyimlik strategiyalari (positive politeness) va kommunikativ moslashuvchanlik ustunlik qiladi. Ayollar suhbatdoshning “yuzi”ni (face) saqlashga, konfliktni yumshatishga

va psixologik yaqinlikni oshirishga intiladi. Bunda kechirim so‘rash, minnatdorchilik bildirish, fikrni qo‘llab-quvvatlash va savol shakllari faol qo‘llaniladi.

Kundalik misollar:

“Sizga qiyin bo‘lmasa, yordam bersangiz bo‘ladimi?” (o‘rniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Yordam ber” demasdan)

“Sizning fikringiz juda qiziq, menimcha ham shunday...”

Erkaklar nutqida pragmatik strategiyalar. Erkaklar nutqida esa dominativ va instrumental pragmatik strategiyalar ustunlik qiladi. Ular suhbat mavzusini boshqarishga, qaror qabul qilishga va o‘z fikrini qat’iy tarzda bildirishga moyil bo‘ladilar. Konflikt holatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va qattiqroq ifodalash kuzatiladi.

Kundalik misollar:

“Bu noto‘g‘ri. Boshqacha qilish kerak.”

“Men shunday deb hisoblayman. Boshqa variant yo‘q.”

3. Ingliz va o‘zbek tillaridagi gender tafovutlarining qiyosiy tahlili

Ingliz tilida ham ayollar nutqida yumshatuvchi (hedging) birliklar ko‘proq uchraydi:

Ayollar: I think, maybe, perhaps, you know, sort of, really, so nice, wonderful.

Erkaklar: definitely, obviously, exactly, absolutely, no problem, sure.

O‘zbek tilida esa ayollar nutqida hurmat va muloyimlikni ifodalovchi affiksalar va so‘zlar keng qo‘llaniladi: -jon, -xon, azizim, marhamat, iltimos, rahmat, iltifot qilib. Masalan: “Azizim, marhamat, o‘tiring”, “Rahmat, juda mehribonsiz”.

Erkaklar nutqida esa “to‘g‘ri”, “aniq”, “yetarli”, “hal bo‘ldi”, “bajar”, “kerak emas” kabi qat’iy va aniq birliklar ustunlik qiladi.

Muhokama. Olingan empirik natijalar gender lingvistikasining yetakchi nazariyotchilari Robin Lakoff, Debora Tannen, Janet Holmes va Penelopa Braun va Stiven Levinsonning asosiy qarashlarini o‘zbek til materiallari asosida tasdiqlab turibdi. Xususan, R. Lakoff tomonidan ta’kidlangan ayollar nutqidagi emotsionallik, hedging (yumshatuvchi) vositalar va muloyimlikning ustunligi mazkur tadqiqotda ham yaqqol namoyon bo‘ldi. D. Tannenning “difference theory” nazariyasiga muvofiq, ayollar nutqi “rapport-talk” (aloqa va yaqinlikka yo‘naltirilgan), erkaklar nutqi esa “report-talk” (ma’lumot va natijaga yo‘naltirilgan) xususiyatini ko‘rsatdi. J. Holmes va Braun-Levinsonning muloyimlik strategiyalari haqidagi nazariyalari ham o‘zbek nutqi misolida o‘z tasdiqini topdi: ayollar ko‘proq positive politeness (ijobiy muloyimlik) strategiyalaridan foydalanib, suhbatdoshning yuzini (face) saqlashga va psixologik yaqinlikni ta’minlashga intiladi.

Ushbu gender tafovutlarning asosiy sabablari ijtimoiy-madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Ayollar nutqining emotsional va moslashuvchan xarakteri jamiyatdagi an’anaviy “g‘amxo‘rlik”, “hamkorlik” va “oilaviy munosabatlarni saqlash” rollari bilan izohlanadi. Aksincha, erkaklar nutqidagi qat’iylik, aniqlik va dominativlik esa “rahbarlik”, “mustaqillik” va “mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish” kabi gender stereotiplari

bilan bog‘liq. O‘zbek madaniyati kontekstida bu farqlar milliy mentalitet va an‘anaviy qadriyatlar ta‘sirida yanada kuchliroq namoyon bo‘lmoqda.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, genderga oid kommunikativ tafovutlar tilning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va psixologik funksiyalarini ham aks ettiradi. Til gender identifikatsiyasini shakllantirish va mustahkamlashning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, globallashuv va ijtimoiy tarmoqlar ta‘sirida gender nutqiy xulq-atvorida ma‘lum darajada o‘zgarishlar kuzatilayotgani ham e‘tiborga molik.

Amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot natijalari quyidagi sohalarda qo‘llanilishi mumkin: Oliy ta‘limda gender jihatlarini hisobga olgan holda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish; Intergender muloqot madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha trening va seminarlar tashkil etish; Media va reklama sohasida samarali kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish; Gender tengligini ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy loyihalarda til omilini hisobga olish.

Shu bilan birga, tadqiqotning cheklanganligini ham qayd etish lozim: tadqiqot asosan Buxoro viloyati va Toshkent shahridagi ma‘lum bir yoshdagi informanlar nutqiga asoslangan. Kelgusida tadqiqotni boshqa mintaqalar, yosh guruhlari va internet diskursi materiallari asosida kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, olingan natijalar gender lingvistikasini o‘zbek tilshunosligida yanada chuqurroq o‘rganishga asos bo‘lib xizmat qiladi hamda til va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tushunishda muhim hissa qo‘shadi.

Xulosa. Nutqiy xulq-atvorning gender sotsiolingvistikasi zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb va rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari erkaklar va ayollar nutqidagi leksik hamda pragmatik xususiyatlar jamiyatdagi gender rollari, madaniy stereotiplar, ijtimoiy kutishlar va milliy mentalitet bilan chambarchas bog‘liqligini yaqqol namoyon etdi.

Tadqiqot jarayonida ayollar nutqida emotsionallik, kommunikativ moslashuvchanlik, muloyimlik strategiyalari (positive politeness), suhbatdosh bilan psixologik yaqinlikni ta‘minlovchi pragmatik birliklar va yumshoq murojaat shakllarining ustunligi aniqlandi. Buning aksincha, erkaklar nutqida qisqalik, aniqlik, informativlik, qat‘iylik va kommunikativ ustunlikni ifodalovchi leksik birliklar hamda dominativ vositalar faol qo‘llanilishi kuzatildi. Mazkur tafovutlar nafaqat individual nutqiy strategiyalarni, balki gender identifikatsiyasining til orqali namoyon bo‘lish mexanizmlarini ham aks ettiradi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi gender kommunikatsiyasining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, ikki tilda ham genderga oid pragmatik mexanizmlar (muloyimlik strategiyalari, hedging vositalari, emotsional markerlar) o‘xshash tamoyillar asosida ishlaydi, ammo ularning namoyon bo‘lish darajasi va chastotasi milliy-madaniy xususiyatlar bilan belgilanadi. Bu holat tilning universal va madaniy o‘ziga xos jihatlarini bir vaqtda namoyon etadi.

Umuman olganda, olingan natijalar gender lingvistikasining nazariy asoslarini empirik materiallar bilan boyitishga xizmat qiladi hamda tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va gender tadqiqotlari o'rtasidagi interdistsiplinarki bog'lanishni yanada mustahkamlaydi.

Kelgusida gender lingvistikasiga oid tadqiqotlarni internet diskursi, ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy media kommunikatsiyasi va sun'iy intellekt vositalaridagi nutqiy xatti-harakatlar asosida davom ettirish muhim ilmiy yo'nalish bo'lib qoladi. Bunday tadqiqotlar nafaqat tilshunoslik nazariyasini rivojlantirishga, balki gender tengligini ta'minlash, intergender muloqot madaniyatini yuksaltirish va samarali kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishga ham hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lakoff R. Language and Woman's Place. – New York: Harper and Row, 1975. – 328 p.
2. Tannen D. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. – New York: Ballantine Books, 1990. – 352 p.
3. Holmes J. Women, Men and Politeness. – London: Longman, 1995. – 254 p.
4. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 300 b.
6. Mahmudov N. Til va nutq masalalari. – Toshkent: Fan, 2013. – 256 b.
7. Cameron D. The Myth of Mars and Venus. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 198 p.
8. Coates J. Women, Men and Language. – London: Routledge, 2015. – 376 p.
9. Wardhaugh R. An Introduction to Sociolinguistics. – Oxford: Blackwell Publishing, 2010. – 432p.
10. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 152 p.
11. Gumperz J. Discourse Strategies. – Cambridge: Cambridge University Press, 1982. – 225 p.
12. Nurmonov A. Sotsiolingvistika asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. – 214 b.